

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA KIBERJINOYATCHILIKKA  
QARSHI KURASHNING KOMPLEKS HUQUQIY MODEL: O‘ZBEKISTON  
TAJIRIBASI VA GLOBAL YONDASHUVLAR**

**Raximova Zilola Shuhratjon qizi**

*Jamoat xavfsizligi universiteti, Maxsus fakulteti 3-kurs talabasi*

**Abstrakt:** Mazkur maqolada kiberjinoyatchilikning transmilliy xususiyati, uning iqtisodiyot, davlat xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligiga ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlashning amaldagi huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari hamda amaliy muammolari o'rganiladi. Shu bilan birga, Daniya tajribasi asosida ilg'or xorijiy yondashuvlar komparativ tahlil qilinib, samarali kiberxavfsizlik tizimi quyidagi omillarga asoslanishi aniqlanadi: mustahkam normativ-huquqiy baza, yuqori texnologik infratuzilma, rivojlangan kiber-savodxonlik va xalqaro hamkorlikning integratsiyalashgan modeli. Maqolada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks huquqiy model taklif etiladi. Ushbu model Budapesht konvensiyasiga qo'shilish, javobgarlik institutlarini takomillashtirish, sun'iy intellekt va LegalTech texnologiyalarini huquqni muhofaza qilish tizimiga integratsiya qilish, ixtisoslashtirilgan tergov organlarini rivojlantirish hamda kibernadaniyatni oshirish choralari o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlikni ta'minlash faqat texnik vositalar bilan cheklanmay, balki kompleks huquqiy, institutsional va ijtimoiy yondashuvni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** kiberjinoyatchilik; kiberxavfsizlik; raqamli transformatsiya; huquqiy tartibga solish; sun'iy intellekt; LegalTech; xalqaro hamkorlik; Budapesht konvensiyasi; kiber tahdidlar; axborot xavfsizligi; kiber-savodxonlik; transmilliy jinoyatlar

Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashishi va jamiyat hayotining barcha sohalari internet bilan uzviy bog'lanishi kiberxavfsizlik masalasini milliy xavfsizlikning eng dolzarb yo'nalishiga aylantirdi (Subanov, 2024). Kiberjinoyatchilik an'anaviy jinoyatlardan farqli o'laroq, geografik chegara tanlamasligi va masofadan turib sodir etilishi bilan insoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda (O'rolova, 2025). O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O'RQ-764-sonli "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni sohaning huquqiy poydevori hisoblanadi. Unga ko'ra Kiberxavfsizlik: Kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holatidir. Kiberjinoyatchilik: Axborotni egallash, o'zgartirish yoki yo'q qilish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar yig'indisi.

Kiberjinoyatchilik yetkazayotgan zararlar: Xalqaro va milliy tahlil

Xalqaro miqyosda: Mutaxassislarining bashoratlariga ko'ra, 2025-yilga borib global miqyosda kiberjinoyatlar yetkazadigan yillik zararining umumiy qiymati 10,5 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda (Minjust, 2026). 2023-yilning o'zida kiberjinoyatchilik jahon

5-Avgust, 2026-yil

iqtisodiyotiga taxminan 8,4 trillion dollar miqdorida zarar keltirdi (Burxonov, 2024). Ma'lumotlarning o'g'irlanishi (data breach) bilan bog'liq bitta hodisaning o'rtacha zarari 2023-yilda 4,45 million dollarni tashkil etgan (Sotvoldiyev, 2024). O'zbekiston miqyosida: Mamlakatimizda kiberjinoyatchilik ko'rsatkichlari so'nggi yillarda keskin o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2021–2023-yillarda jinoyatlar soni 25 baravarga oshganligi qayd etilgan (Fayzullaev, 2025). Statistik ma'lumotlarga ko'ra: 2021-yilda 4 865 ta, 2022-yilda 7 570 ta, 2023-yilda 6 455 ta va 2024-yilda 50 mingdan ortiq kiberjinoyat sodir etilgan (Minjust, 2026). Faqatgina 2023-yilning 9 oyi davomida fuqarolarga yetkazilgan moddiy zarar miqdori 372 milliard 800 million so'mni tashkil etgan (Shoimov, 2024). 2024-yil may oyida O'zbekistonning ".uz" domenidagi veb-saytlariga 6,6 milliondan ortiq kiberhujumlar uyushtirilgan (Axmedov, 2024).

Xalqaro tajriba: Daniya namunasi Kiberxavfsizlik bo'yicha dunyodagi eng kuchli va jinoyatchilik darajasi past davlatlardan biri Daniya hisoblanadi. SEON kompaniyasi reytingiga ko'ra, Daniya kiberxavfsizlik bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega davlat sifatida e'tirof etilgan (Fayzullaev, 2025). Daniyadagi muvaffaqiyatning asosiy sabablari: Kuchli huquqiy baza va texnologik uyg'unlik: Daniyada kiberjinoyatlarga qarshi kurashish nafaqat qonunchilik, balki yuqori texnologik infratuzilma orqali eng yuqori darajada himoyalangan (Fayzullaev, 2025). Kiber-savodxonlik: Aholi o'rtasida kiber-gigiyena qoidalariga rioya qilish madaniyati juda yuqori darajada shakllangan (Usmanov, 2024). Xalqaro hamkorlik: Ular transmilliy kiberjinoyatlarni tergov qilishda Evropol va Interpol kabi tashkilotlar bilan tezkor ma'lumot almashinuvi tizimini yo'lga qo'ygan (Abdulaxadov, 2024).

O'zbekistonda huquqiy yechimlar va takliflar. O'zbekistonda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun quyidagi huquqiy yechimlar dolzarb hisoblanadi: Budapesht konvensiyasiga qo'shilish: 2001-yildagi "Kiberjinoyatchilik to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shilish transmilliy jinoyatlarni fosh etishda xalqaro huquqiy yordam olish imkonini beradi (Rayimov, 2024) Javobgarlikni kuchaytirish: Kiberjinoyat sodir etishda foydalanilgan bank kartasi va SIM-karta egalari ("drop"lar) uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni belgilash zarur (PQ-153, 2025). Sun'iy intellekt (AI) va LegalTech integratsiyasi: Kiberhujumlarni real vaqt rejimida aniqlash va dalillarni raqamli tahlil qilish uchun AI algoritmlarini huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga keng joriy etish lozim (Burxonov, 2024). Ixtisoslashtirilgan tergov tuzilmalari: Kiberjinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgan alohida tergovchilar korpusini shakllantirish va ularning muntazam malakasini oshirish tizimini yaratish lozim (O'rolova, 2025). Kibermadaniyatni yuksaltirish: Noyabr oyini respublika miqyosida "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" deb e'lon qilish va aholi o'rtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish zarur (PQ-153, 2025). Kiberjinoyatchilik zamonaviy jamiyatda transmilliy, yuqori darajada daromad keltiruvchi va tez rivojlanayotgan jinoyat turiga aylanib, global iqtisodiyot va milliy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayoni tez kechayotgan davlatlarda, jumladan O'zbekistonda, kiberxavfsizlik infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi jinoyatchilikning keskin o'sishiga sabab bo'lmoqda

Xulosa qilib aytganda, kiberxavfsizlikni ta’minlash faqatgina texnik choralar bilan cheklanib qolmasdan, balki takomillashgan huquqiy baza va aholining yuqori raqamli madaniyatini talab etadi (Subanov, 2024)

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2022, 15-aprel). Kiberxavfsizlik to‘g‘risida, O‘RQ-764-son. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2025, 30-aprel). Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida, PQ-153-son. Lex.uz.
3. O‘rolova, N. E. (2025, 13-iyul). Kiberjinoyatlar va ularni tergov qilishda zamonaviy tergovchi qiyofasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali.
4. Jumayev, Sh. B. (2026, 23-fevral). Kiberjinoyatlar uchun javobgarlik choralari va ulardan himoyalalanish usullari qanday? Minjusttraining.uz.
5. e-Governance Academy (eGA). (2025, iyun). Central Asia Cybersecurity Baseline Study: Executive Summary. Team Europe Initiative.
6. Tashmanov, Y. B. (2024, 5-dekabr). Raqamli transformatsiya jarayonlarida kiberxavfsizlik muammolari va ularning yechimlari. IIV Malaka oshirish instituti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 44-48.
7. Shoimov, N. B. (2024, 5-dekabr). Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asosi sifatida «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonunning ahamiyati. IIV Malaka oshirish instituti, 228-232. Burxonov, B. H. (2024, 5-dekabr). Kiberjinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari. IIV Malaka oshirish instituti, 128-132.
8. Atamirzaev, I. X. (2024, 5-dekabr). Kiberxavfsizlikni oldini olishda shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining o‘rni. IIV Malaka oshirish instituti, 21-24. InfoCOM.UZ. (2025, 24-mart). O‘zbekistonda kiberxavfsizlik rivojlanish darajasining tahlili.
9. Chin, K. (2025, 5-yanvar). The Impact of Cybercrime on the Economy. UpGuard.
10. Otayev, O. M. (2024, 5-dekabr). Kiberjinoyatchilik va internet tarmoqlarining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri. IIV Malaka oshirish instituti, 117-121.x
11. Subanov, O. S. (2024, 5-dekabr). Axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizlikni ta’minlash masalalari. IIV Malaka oshirish instituti, 91-94.x
12. Sotvoldiyev, A. R. (2024, 5-dekabr). Kiberjinoyatlarni yoshlar tarbiyasiga ta’siri. IIV Malaka oshirish instituti, 213-216.x
13. Rayimov, M. X. (2024, 5-dekabr). Yangilanayotgan O‘zbekistonda kiber jinoyatlarga qarshi kurashishning o‘ziga xos jihatlari. IIV Malaka oshirish instituti, 205-209.